

“MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN” ASARIDA IKKI TIL MUBOHASASI

Mirtolipova Xulkar Mirxusan qizi

ChDPU gumanitar fanlar fakulteti, 3-kurs talabasi
mirtolipovahulkaroy@gmail.com +998 93 098 45 04

Ilmiy rahbar: A.U.Muyidinova

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti
v.b.,f.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari orqali turkiy tilshunoslikka oid nodir qarashlari hamda tilning naqadar boyligini fors-tojik va arab tillari bilan solishtirmasi asosida o‘rganilganligi shu jumladan, bugungi kunda tutgan ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Turkiy til, fors tili, morfologik tahlil, fonetik tahlil, qiyosiy tahlil, semantik qamrov, taqqoslash, imkoniyat kengligi, leksik birliklar.

Abstract. This article talks about Alisher Navoi's rare views on Turkic linguistics through his work "Muhokamat ul-lughatayn" and the importance of the language today, including the study of the richness of the language compared to the Persian-Tajik and Arabic languages.

Keywords: Turkic language, persian language, morphological analysis, phonetic analysis, comparative analysis, semantic scope, comparison, the breadth of possibilities, lexical unites.

O‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkiri Alisher Navoiy tilshunoslikka oid ko‘plab qimmatli asarlar yaratgan. Ulardan eng ko‘p e‘tiborga molik ijod namunasi umrining oxirida, 1499-yilda yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni ya‘ni ikki til muhokamasiga doir beqiyos asardir.

Asarning kirish qismi an‘anaviy hamd va na‘t bilan boshlanadi. Asar davomida turkiy-o‘zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o‘rganish vositasida turkiy-o‘zbek tilining Sharqda mashhur bo‘lgan arab va fors-tojik tillari darajasidagi mavqeyidan so‘z yuritiladi hamda ulardan, xususan, fors-tojik tilidan farq qiluvchi xususiyatlari ochib beriladi. Jumladan, shoir fors tilida unlilar soni cheklanganligi, o‘zbek tilida esa unlilar bir qancha ma‘no farqlovchi variantlarga ega ekanligi va ular o‘zaro uzun-qisqaligi bilan ajralib turishini dalillar orqali ko‘rsatib bergan. Alisher Navoiy so‘zlarning ko‘p ma‘noliligi, sinonimlar jihatidan ham o‘zbek tilining imkoniyati kengligi, ularning she‘riyatda turli nozik ma‘nolarni ifodalashdagi ahamiyatini (ot, it, tush, yon, yoq, bor, sog‘in, tuz, ko‘k kabi so‘zlar talqinida) ko‘rsatadi. Shoir o‘zbek va fors tillari leksikasini qiyoslash uchun tabiat manzaralari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ov jarayoni,

hayvon va qushlarning turlari kabi juda ko'p sohaga oid yuzlab so'zlarni keltirib, bu so'zlarni muqobalasiforschada yo'qligini, forslar ko'pincha o'sha o'zbekcha so'zni o'zini ishlatishini ta'kidlab, o'zbek tilining boy imkoniyatlarini har tomonlama ochib bergan.

Ma'lumki, qaysi til fikrni qisqa va ravon yo'l bilan ifodalasa, o'sha til rivoj topgan til sanaladi. O'zbek tilining taraqqiy etgan til ekanligini shoir zaruriy misollar bilan izohlab beradi. Masalan, o'zbek tilida birgalik nisbat qisqagina -sh affiksi orqali yasaladi: "va masdarg'a bir shin harfi ilhaq qilmoq bila ul maqsudni topibdurlar. Andoqi chopishmoq va topishmoq va quchushmoq va o'pushmoq va bu shoye lafzdur".¹ Forslar bu ma'noni so'z birikmasi orqali ifodalaydilar. Navoiy shaxs oti yasovchi qo'shimchaning xususiyatini 30ga yaqin so'z misolida izohlab (qo'rchi, suvchi, nayzachi, yurtchi, qushchi, barschi, qo'ychi, turnachi, kiyikchi va hokazo), o'zbek tilining so'z yasash va fikr ifodalash jihatidan ham o'ziga xos imkoniyati mavjudligini ko'rsatgan.

Alisher Navoiy turk va fors xalqini solishtirar ekan turk sortdin tez fahmroq va baland idrokroq, xilqati sofroq, ilmida daqiqroq, kamol-u fazl fikratida amiyroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidqu safo va tuz niyatidin va sortlarning ilmu funun va hikmatidin zohirdirur deya ta'rif beradi. Turkular forslarga qaraganda yumshoq ko'ngilli hamdir. Ularning katta-kichigi, amaldori hamda oddiy xalqi ham fors tilini biladilar shu tilda so'zlashadilar. Hatto fors tilda hikoya va she'rlar bitadilar. Ammo forslar turk tilini o'rganmaydilar, bilmaydilar va so'zlamaydilar. Agar birortasi so'zlasa ham forsiy ekani so'z boshlagandayoq bilinadi.

Bundan tashqari, Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida eski o'zbek tilining imkoniyatlarini ko'rsatish maqsadida shu tilning o'ziga xos bo'lgan 100ta so'zni misol qilib keltiradi. Bular: quvarmoq, quruqshamoq, usharmak, kekkaymoq, udayman, chekirmak, xumsaymoq, umunmoq, usanmoq, igirmak, egarmak, uxranmoq, toriqmoq, aldamoq, ishanmak, inglanmoq, aylanmoq, orikmak, ingranmoq, ovunmoq, istamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrilmoq, siljimoq, shamolda tozalanmoq, chaqalmoq, yovdashmoq, kimsamoq, qimirlamoq, qizg'anmoq, nikamak, siylanmoq, tanlamoq, qimirdamoq, sirpmak, kanorgamak, sig'riqmoq, qilimoq, yalinmoq, munglamoq, tergamak, tevrarak, shig'aldamoq, singramak, yashqamoq, isqarmoq, ko'ngramak, suxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmoq, quymanman, ingramak, tushalmoq, mung'aymoq, kuruksamak, tanchqamoq, tushurg'anmoq, g'umsamoq, kirkinmak, sukadamak busmuq, burmak, turmoq, tomshimoq, qahamoq, sipqormak, murkanmak, o'rtanmak, qiynalmoq, sig'g'irmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, yirg'amoq, bichimoq, sungurmak, kundalakmak, yumaloq qilmoq, kumurmak, bikirmak, ko'ngirdamak, bo'shashmoq, kinarkamak, kezarmak, duptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg'anmoq, qichig'lamoq, gangiramak, yodamoq, qadamoq, chiqanmoq, so'ndirmak, suqlatmoq, ko'ndirmak, chimdalamak, tepilmaq.

Navoiy soʻzlarning fonetik va morfologik tuzilishiga ham eʼtibor qaratadi. Masalan, “ilm” soʻzi umumiy bilim va donishmandlikni bildirsa-da, turkiy til bilan qiyoslanganda, Navoiy arab soʻzlarining grammatik tuzilishi orqali ifodalanishi mumkin boʻlgan nozik farqlarni tahlil qiladi. “Ilm” soʻzi yagona, lekin keng qamrovli maʼnoni anglatadi, turkiy tillarda esa ilm tushunchasi kengaytirilgan boʻlib, “bilim”, “donish”, “koʻrgilik” kabi soʻzlar orqali ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiy fikriga koʻra, turkiy tildagi ifodalar koʻproq aniq va oʻrinli foydalaniladi.

Yana adabiy manbalarda “sabr” soʻzi keng qoʻllaniladi. Bu soʻz diniy va axloqiy maʼnoda, sabr qilish va toqat qilishni ifodalaydi. Biroq, Navoiy bu soʻzning turkiy tilga xos mos ekvivalenti sifatida “chidash” soʻzini keltirib oʻtadi, bu esa nafaqat toqatni, balki biror narsaga bardoshli boʻlishni ham anglatadi. Bu orqali Navoiy turkiy tillarning semantik jihatdan keng qamrovli ekanligini qayd etadi.

Shuni eslatib oʻtish joizki, turkiy tilning jozibasi haqida soʻz yuritar ekan oʻsha davrdagi mashhur boʻlgan arab, fors va hind tillarini kamsitmaydi, aksincha ularning har biriga xos boʻlgan xususiyatini alohida ehtirom bilan bayon qiladi. Bundan koʻzda tutilgan maqsad turkiy tilning fasohati va balogʻati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni bayon qilish bilan bir qatorda “...turk nozimlari, oʻz alfozlari bilan sheʼrgʻa mashgʻulluq qilgʻaylar va koʻngul gʻunchasi dogʻidinki pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilgʻaylar”.²

Alisher Navoiy turkiy tillarni fors-tojik va arab tillariga qiyoslab, ularning oʻziga xos afzalliklarini va bir-biridan ustun jihatlarini ifodalashga intilgan. Navoiy turkiy tillarda har bir soʻzning keng ifoda imkoniyatlari mavjudligini va ularning qiyosiy tahlili orqali keng maʼno qamrovini tasvirlash mumkinligini koʻrsatgan. Shu bilan birga, arab va fors tillari ham muhim ilmiy-axloqiy ahamiyatga ega ekanini taʼkidlab, ularning oʻziga xos boyligini ham inkor etmaydi. Shu jumladan, oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligini rivojlanishida qoʻshgan beqiyos hissasi bilan tarixda oʻchmas iz qoldirgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov, E. "Muhokamat ul-lugʻatayn". uz.m.wikipedia.org.¹
2. Valixojayev, B. (2018). “Muhokamat ul-lugʻatayn” haqida. www.kh-davron.uz.²
3. Jalilov, S. (2015). “Turkiy tillar va ularning lingvistik oʻziga xosliklari”. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. Mahmudov, M. (2011). “Qiyosiy lingvistika: Nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar”. Toshkent: TDTU nashriyotii
5. Mirtojiyev, M.(2000). “Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi”. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Xolmuhammedov, A. (2012). “Oʻzbek tilining leksik va grammatik xususiyatlari”. Toshkent: Oʻqituvchi.
7. <https://arxiv.uz> sayti.